

## MUHAMMAD YUSUF SHE‘RLARIDA KONNOTATIV MA‘NONING IFODALANISHI

*Toshkent gumanitar fanlar universiteti boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi*

**Xusinova Xolida Maxsud qizi**

**Annotatsiya:** *Muhammad Yusufning chuqur mazmundor she‘rlari orqali konnotativ ma‘noning go‘zal ko‘rinishlari ifodalangan. Shoir ijodini o‘qir ekanmiz bir qancha badiiy san‘atlar va turli ma‘no ko‘chish turlaridan foydalanganini ko‘rishimiz mumkin. Biz bilamizki, badiiy tasviriy vositalar va ko‘chimlar she‘rning badiiy estetik qiymatini oshiruvchi vositalardir. Bu kabi vositalardan Muhammad Yusuf o‘z she‘rlarida juda ko‘p foydalangan.*

**Kalit so‘zi:** *Konnotativ ma‘no, metafora, metonimiya, obraz, she‘r, ibora va badiiy.*

Xalqimiz ma‘naviyati, ongu tafakkurini yuksaltirish, yosh avlod qalbida o‘zlikni anglash, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini, ezgu fazilatlarni kamol toptirish borasida katta hissa qo‘shgan shoir ijodi va asarlari avlodlarga katta saboq berib kelmoqda.

Shoir o‘z she‘rlarida ona- yurt madhi, sevgi, vafo, sadoqat, do‘stlik, mehr-oqibat, vatan sevgisi, oila va boshqa mavzularni ham tarannum etadi. Bu she‘rlarni o‘qir ekanmiz yuraklarimiz junbushga keladi, go‘yo bizni cheksiz olam sirlarini bilishga va yashashga bo‘lgan ishtiyoqimizni oshiradi. Muhammad Yusuf she‘rlari tilining soddaligi va ravonligi bilan barcha yoshdagi o‘quvchilar qalbidan joy olgan. Muhammad Yusuf she‘rlari bir qarashdan oddiydek ko‘rinishi mumkinday, lekin she‘rlarini o‘qigan sari chuqur falsafiy ma‘no mazmun borligini ko‘ramiz.

Shoir o‘z ijodini o‘qir ekanmiz bir qancha badiiy san‘atlar va turli ma‘no ko‘chish turlaridan foydalanganini ko‘rishimiz mumkin. Biz bilamizki, badiiy tasviriy vositalar va ko‘chimlar she‘rning badiiy estetik qiymatini oshiruvchi vositalardir. Bu kabi vositalardan Muhammad Yusuf o‘z she‘rlarida juda ko‘p foydalangan.

Bizning bo‘ston qayda bor,  
Shohimardon qayda bor,  
So‘lim Surxon qayda bor,  
Samarqand non qayda bor-a,  
O‘zbekiston qayda bor!

*(M. Yusuf to‘plami)*

Muhammad Yusuf she‘rlarida juda ko‘p vositalardan unumli foydalangan. Bu she‘rning o‘zida onomastik birliklardan ham unumli foydalangan. Shohimardon, Surxon, Samarqand va O‘zbekiston kabi toponimlardan foydalanib she‘rning badiiy – estetik va ta‘sirchanlikini oshirgan.

Shu bilan birga konnotativ ma‘no, ya‘ni ko‘chimlardan ham unumli foydalanib har bir ko‘chimning xususiyatlarini to‘la va ochiq ochib bera olgan shoir she‘rlarida.

Bu she‘rda ko‘chimning metonimiya turi qo‘llanilgan.

Metonimiya – yunoncha so‘z bo‘lib, “qayta nomlash” degani. Metonimiya ham ma‘no ko‘chish usullaridan biri bo‘lib, bunda “bir predmetning, belgining, harakatning nomi boshqasiga o‘xshashlik asosida emas, bog‘liqlik asosida ko‘chiriladi.”

Metonimiya - ikki tushuncha o‘rtasidagi yaqinlikka asoslangan o‘xshashsiz ko‘chim. Metonimiyada biror narsa yoki voqea-hodisaning nomi boshqasiga ko‘chiriladi, biroq bu nomlash narsalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka emas, balki ular o‘rtasidagi yaqinlikka, aloqadorlikka asoslanadi.

Metonimiya ham yangi ma‘no hosil qilish jarayoni va bu jarayon natijasining barqarorligiga ko‘ra lison va nutqqaxos bo‘lgan hodisadir. Metonimiya quyidagi ko‘rinishlarda uchrashi mumkin:

1. Bir predmet nomi shu predmetdagi boshqa bir predmetga ko‘chiriladi.
2. Bir predmet nomi shu predmetga asoslangan o‘lchov birligining nomi bilan xizmat qiladi.
3. Bir predmet nomi shu predmet asosida hosil bo‘ladigan predmetga ko‘chiriladi.
4. Harakatning nomi shunday harakat natijasida hosil bo‘ladigan predmetga ko‘chiriladi.

She‘rda ifodalangan “Shohimardon qayda bor” misrasida joy nomi orqali metonimiya ifodalangan. Shohimardon nomi orqali tuman nomi ifodalangan. Ya‘ni bu yerda biri aytilganda ikkinchi bir narsani tushunyapmiz.

So‘lim Surxon qayda bor deya Surxon kabi joy nomi nazarda tutilgan.

“Samarqand non qayda bor-a”, misrasida Samarqand deb viloyat nomi nazarda tutilgan. Bu misrada yana konnotativ ma‘noning fonetik usul bilan ifodalangan o‘rin bor. Bu yerda “a” unlisi orqali konnotativ ma‘no ifodalangan. Bu so‘roq- tajjub yuklamasi orqali ifodalanib she‘rning badiiyligini oshiruvchi vosita vazifasini bajargan. Bu kabi vositalarni Muhammad Yusufning har bir she‘rida uchratishimiz mumkin.

Yig‘lar Samarqandga sirdosh Buxoro

Minorida uxlar quyosh, Buxoro

Ibn Sinolari talosh Buxoro,

O‘zingiz qaydasiz Fayzullo bobo.

She‘rda ko‘chimning ikki turi biradaniga qo‘llanib, she‘rning ta‘sirchanligini va diqqatni torta biladigan darajada go‘zal bo‘lishini ta‘minlab turibdi. Bu yerda metofara yig‘lar, sirdosh so‘zlari orqali ifodalangan. Bu yerda yig‘lash va sirdoshlik kabi tuyg‘ular insonlarga xos bo‘lib buni turli narsalarga ko‘chirish orqali hosil qilingan. Buxoroni xuddi inson kabi tasvirlab uning sirdosh va yig‘lashi kabi holatlarni obrazli qilib tasvirlagan.

Metafora- metaphora "ko'chirma" demakdir. Predmet, narsa, hodisalarning tashqi o'xshashiligiga, shakliy, ichki belgilariga asoslanib ma'no ko'chishiga metafora deyiladi. Ko'proq tashqi o'xshashlikka metafora deyiladi. Metafora usulida nom ko'chishi narsa va hodisalar o'rtasida nisbiy o'xshashlikka ko'ra bo'ladi va ularning rangi, shakli, harakati ikkinchi shunday predmet belgisi bo'lgan nomini oladi. Misol uchun “ichi qora” bunda qora so'zida ma'no ko'chishi kuzatilyapti. Ya'ni ichimiz qora yoki oq bo'lishi bu ko'chma ma'noda ifodalaymiz. Agar qora daftar bo'lganda o'z ma'no bo'lardi. Qora rang yomonlik yaxshi ma'no ifoda etmasligini bilamiz bu yerda ham yaxshi niyatli emas, balki yomon niyatli insonlarga nisbat qo'llaymiz bu kabi ko'chma ma'noli iboralarni. Ichidagi yomon niyatni o'xshatganligi sababli metafora usulida ma'no ko'chyapti.

Qir tomondan poda qaytib kelarkan qator

Kumush sohil bo‘ylariga changlar yastanib,

Qishloqning eng chekkasidan bahaybat chinor

Ufq tarafga qarab qo‘ydi xavotirlanib.

*(Muhammad Yusuf “Manzara”).*

Metaforani hosil qilgan birikmalar bu “kumush sohil”, xavotirlanmoq” kabilardir.

Sohilning kumush bo‘lishi, chinorning ufqqa qarab xavotirlanib qo‘yishi kabi vositalar orqali konnotativ ma‘noning leksik usul bilan ifodalab she‘rning obrazlilikini, kitobxon qalbiga tez yetib borishini ta‘minlagan jimjimador, bo‘yoqdor so‘zlardan foydalangan. Katta chinor orqali, ya‘ni buyuk insonlarni, ota-onalarni xavotirga farzandlari kamoli uchun harakat qilishlarini ham tushunish mumkin. Bu kabi bir biridan ajoyib o‘xshatishlar shoir ijodining go‘zal tomoni hisoblanadi.

Ona chumchuq aylanib ketmas,  
Ko‘ngliga qil sig‘masa kerak.  
Eski indan tashib borib xas,  
Yangi inda yig‘lasa kerak.

*(Muhammad Yusuf “Qushlar ham yig‘lar”)*

Ko‘chimlarni ifodalashda biz iboralarni ham olishimiz mumkin. Chunki ibora ham ko‘chma ma‘noda qo‘llanadigan barqaror birlik bo‘ladi. She‘rda ham ibora qatnashgan o‘rinlarni uchratishimiz mumkin. “Ko‘ngliga kir sig‘maslik” iborasi bir ish yuzasidan yomon holat bo‘lsa shu paytda ishlatilgan bo‘ladi. She‘rda ham aynan shu holat, ya‘ni chumchuqning inini buzilishi va yangi uy qurishga harakat qilishi tasvirlangan. Shoir she‘rning emotsional – ekspressiv ma‘nosini kuchaytirish uchun va obrazli bo‘lishi uchun ham frazeologik birlikdan foydalangan.

Bu kabi ko‘chimlarning ifodalanishi shoirning naqadar so‘zga chechan ekanligini va har bir ifodalagan oddiy va samimiy so‘zlari orqali kitobxonlar qalbidan mangu joy olgandir.

#### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbek tili stilistikasi. T. :O‘qituvchi, 1983.
2. Muhammad Yusuf. Saylanma. Toshkent, 2004.
3. N. Jiyanova. O‘zbek tilining amaliy uslubiyati. Toshkent, 2018-yil.
4. Muhammad Yusufning “Ulug‘imsan, Vatanim” to‘plami Toshkent Sharqnashriyoti 2016 “
5. Mirtojdiyev M. Metonimiyaning sodir bo‘lishi. O‘zbek tili leksikologiyasi va grammatikasi masalalari. Toshkent: Tun.1978.